

SAN'AT ORQALI GENDER TENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH:

(Zamonaviy ijtimoiy ong va ta'lim muhiti misolida)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-233-237>

X.S. Ibragimova

*Toshkent davlat sharxshunoslik universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD);*

D.E. Nuratdinova

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti doktoranti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada gender tenglik tushunchasining san'at sohasi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Erkak va ayol ijodkorlarning jamiyatda qabul qilinishidagi farqlar, san'atda mavjud gender stereotiplari hamda ularni bartaraf etishda san'atning ijtimoiy-ta'limiy imkoniyatlari yoritiladi. Muallifning ilmiy pozitsiyasiga tayangan holda san'atni gender tenglik madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qarash zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi va madaniy siyosatda genderga sezgir yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *gender tenglik, san'at, madaniyat, ijodkor ayol, ijodkor erkak, ijtimoiy ong, san'at ta'limi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется неразрывная связь понятия гендерного равенства со сферой искусства. Освещаются различия в общественном восприятии мужчин и женщин-творцов, существующие в искусстве гендерные стереотипы, а также социально-образовательные возможности искусства в их преодолении. Опираясь на научную позицию автора, обосновывается необходимость рассматривать искусство как эффективное средство формирования культуры гендерного равенства. Результаты исследования способствуют развитию гендерно-чувствительных подходов в системе образования и культурной политике.

Ключевые слова: *гендерное равенство, искусство, культура, женщина-творец, мужчина-творец, общественное сознание, художественное образование.*

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical analysis of the intrinsic relationship between the concept of gender equality and the field of art. It highlights differences in the societal perception of male and female creators, existing gender stereotypes in art, as well as the socio-educational potential of art in overcoming them. Based on the author's scientific position, the necessity of considering art as an effective means of forming a culture of gender equality is substantiated. The research findings contribute to the development of gender-sensitive approaches in the education system and cultural policy.

Keywords: *gender equality, art, culture, female creator, male creator, social consciousness, art education.*

KIRISH

San’at qadimdan jamiyat hayotini aks ettiruvchi va unga ta’sir etuvchi kuchli vosita bo‘lib kelgan. Tasviriy san’at, musiqa, teatr, adabiyot va kino kabi san’at turlari orqali jamiyatda erkak va ayol obrazlari, ularning ijtimoiy mavqei hamda rollari ifodalanib kelinadi. Ushbu obrazlar orqali genderga oid ijtimoiy qarashlar shakllanadi yoki o‘zgaradi. Zamonaviy san’atda gender tenglik g‘oyalarining keng yoritilishi ayollar va erkaklarning ijodiy salohiyatini teng e’tirof etish, ularning jamiyatdagi o‘rnini adolatli baholashga xizmat qilmoqda. San’at orqali gender tenglik masalalarining ko‘tarilishi jamiyat a’zolarini tanqidiy fikrlashga undaydi va ijtimoiy ongda yangicha yondashuvlarni shakllantiradi.

Zamonaviy ijtimoiy ong axborot oqimi va madaniy mahsulotlar orqali shakllanadi. San’at ana shu ongni shakllantiruvchi eng ta’sirchan vositalardan biridir. Ayniqsa, vizual va audiovizual san’at turlari orqali gender tenglik g‘oyalari keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Bu jarayon jamiyatda tenglikka asoslangan madaniyatni qaror toptirishga yordam beradi. San’at asarlarida ayol va erkakning teng huquqli subyekt sifatida tasvirlanishi, ularning ijtimoiy va ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini yoritish gender stereotiplarining yemirilishiga olib keladi. Natijada jamiyatda gender tenglikni tabiiy va zarur qadriyat sifatida qabul qilish jarayoni jadallashadi. Ta’lim muhitida san’atdan pedagogik vosita sifatida foydalanish gender tenglik madaniyatini shakllantirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Musiqa, tasviriy san’at, teatr va ijodiy loyihalar orqali talabalar va o‘quvchilarda tenglik, o‘zaro hurmat va empatiya kabi fazilatlar rivojlanadi. San’atga asoslangan ta’lim jarayonlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyatni his etishi va gender masalalariga ongli yondashuvini ta’minlaydi. Bunday yondashuv ta’lim muhitini yanada inklyuziv va demokratik qilish bilan birga, kelajak jamiyatining barqaror rivojiga xizmat qiladi.

San’at jamiyat madaniyati va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. San’atning obrazlar, ramzlar va g‘oyalar orqali inson idrokiga ta’siri erkak va ayol rollariga oid stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish, ularni yangicha qarashlar asosida talqin etish imkonini beradi. Shu tariqa san’at orqali gender tenglik madaniyati jamiyatda ijtimoiy rollarga bo‘lgan hurmatni, teng huquq va imkoniyatlarni qadrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

San’at zamonaviy ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim vositadir. Bu jarayonda musiqa, kino, teatr, tasviriy san’at va boshqa ijodiy faoliyat turlari orqali gender tenglik g‘oyalari jamiyat a’zolariga yetkaziladi. Bu ijtimoiy jarayon yosh avlodda hurmat, adolat va o‘zaro anglashuv qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatning madaniy anglashuvi san’at orqali ifodalangan gender tenglik chuqur estetik tajriba sifatida qabul qilinadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda gender stereotiplarining so‘nib borishi va ular o‘rniga tenglik, hurmat hamda fuqarolik mas’uliyati kabi ijtimoiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Ta’lim muhitida san’atning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish gender tenglik madaniyatini shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Ta’lim jarayonida san’at vositalari – drama darslari, ijodiy loyihalar, vizual tasvirlar orqali

o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya, tenglikka bo‘lgan hurmat va hamkorlik ruhini rivojlantiradi. Bu orqali ta‘lim muhitida inklyuzivlik darajasi oshadi va yosh avlodda adolat tamoyillari mustahkamlanadi.

Davlat siyosatining gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan huquqiy me‘yorlari san‘at va ta‘lim sohalarida gender tenglik madaniyatini shakllantirish jarayonini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 14-martda qabul qilingan PQ-103-sonli qaror xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat sifatida qabul qilindi. Mazkur qaror doirasida xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash va gender tenglik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha mas‘uliyat Bosh prokuror o‘rinbosariga yuklatilgan bo‘lib, u gender siyosati samaradorligini nazorat qilishni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, u xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta‘minlashni maqsad qilgan kompleks davlat dasturidir. Ushbu strategiya ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida gender tenglikni mustahkamlashni nazarda tutadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga kiradi.

Prezident qarori va strategik hujjatlar gender tenglik siyosatini milliy taraqqiyot yo‘nalishiga aylantirib, san‘at orqali shakllanayotgan gender madaniyatining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi. Davlat miqyosida qabul qilingan qat‘iy qarorlar san‘at va ta‘lim sohalarida gender tenglik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ushbu yo‘nalishda ijtimoiy ongni rivojlantirishning institutiyal asoslarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda gender tenglik masalasi global miqyosda dolzarb ijtimoiy-madaniy muammo sifatida qaralmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ta‘lim siyosati va madaniy rivojlanish jarayonlarida erkak va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Ushbu jarayonda san‘at sohasi ijtimoiy ongni shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki san‘at jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, qarashlar va qadriyatlarni aks ettiruvchi kuchli madaniy vositadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 14-martda qabul qilingan PQ-103-sonli qaror

San‘at tarixiga nazar tashlasak, uzoq davrlar mobaynida erkak ijodkorlar ustun mavqega ega bo‘lib kelganini ko‘ramiz. Ayol san‘atkorlar esa ijtimoiy cheklovlar, an‘anaviy qarashlar va kasbiy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli ko‘pincha e‘tibordan chetda qolgan¹. Natijada san‘atda gender stereotiplari shakllangan va mustahkamlangan. XX asrga kelib, ayol ijodkorlarning san‘at maydoniga faol kirib kelishi, ularning asarlari xalqaro miqyosda e‘tirof etilishi gender tenglik jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi. Bu jarayon san‘atning ijtimoiy vazifasi kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Zamonaviy san‘atda erkak va ayol ijodkorlarning o‘rni bugungi kunda san‘atning turli yo‘nalishlarida — musiqa, tasviriy san‘at, teatr, kino va xalq og‘zaki ijodida erkak va ayol ijodkorlar teng

ishtirok etmoqda. Shunga qaramay, ayrim sohalarda, xususan, an'anaviy san'at turlarida genderga oid stereotiplar hanuzgacha saqlanib qolmoqda².

San'atda ijodiy muvaffaqiyat jins bilan emas, balki shaxsning iste'dodi, mehnati va kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Shu sababli san'at ta'limida erkak va ayol talabalar uchun teng sharoit yaratish, ularning ijodiy imkoniyatlarini bir xil qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifadir. San'at ijtimoiy ongning o'zgartirish va gender tenglik g'oyalarini targ'ib etishda samarali vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayonida san'at orqali ayol va erkak obrazlarini teng, faol va ijodkor sifatida talqin etish yosh avlod ongida genderga oid sog'lom qarashlarni shakllantiradi³.

Milliy va zamonaviy san'at namunalarida ayol va erkaklarning teng ijodiy subyekt sifatida namoyon bo'lishi oilaviy qadriyatlar, ta'lim siyosati va ijtimoiy ong transformatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur ilmiy maqolada san'at orqali gender tenglik madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy ijtimoiy ong va ta'lim muhiti misolida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida gender tenglik tushunchasi faqat huquqiy yoki ijtimoiy kategoriya emas, balki jamiyat madaniyati va ma'naviy rivojining muhim ko'rsatkichi ekani asoslab berildi. Ayniqsa, san'atning jamiyat ongiga ta'sir etish kuchi gender tenglik g'oyalarini singdirishda muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, san'at insonning estetik qarashlari, hissiy dunyosi va ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda beqiyos vosita bo'lib, erkak va ayolga nisbatan mavjud stereotiplarni yumshatish hamda ularni tanqidiy qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi. San'at asarlarida gender tenglikka asoslangan obraz va g'oyalarning ifodalanishi jamiyatda tenglik, adolat va o'zaro hurmat qadriyatlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy ongning shakllanishida san'atning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ommaviy madaniyat, vizual va audiovizual san'at turlari orqali gender tenglik g'oyalari keng auditoriyaga yetib borayotgani ijtimoiy ongda yangi qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat jamiyatda gender tenglikni tabiiy va zarur ijtimoiy norma sifatida qabul qilish jarayonini jadallashtiradi.

Maqolada ta'lim muhiti gender tenglik madaniyatini shakllantirishning asosiy maydonlaridan biri sifatida talqin etildi. San'atga asoslangan ta'lim yondashuvlari o'quvchi va talabalar ongida ijtimoiy tenglik, empatiya va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi. Musiqa, tasviriylar san'at, teatr va ijodiy loyihalar orqali ta'lim jarayonining boyitilishi yosh avlodning gender masalalariga ongini va mas'uliyatli yondashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, san'at vositasida gender tenglik madaniyatini shakllantirish ta'lim tizimining inklyuzivligini oshirish, pedagogik jarayonni demokratlashtirish va talabalarning ijodiy faolligini kuchaytirishga imkon beradi. Bunday yondashuv nafaqat shaxsning har tomonlama

rivojlanishiga, balki jamiyatning barqaror va adolatli taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, san’at orqali gender tenglik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Ushbu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirish, san’atning ta’limdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda gender tenglik g‘oyalarini madaniy qadriyat darajasiga ko‘tarish kelajak jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, san’at sohasi gender tenglik madaniyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy va pedagogik imkoniyatlarga ega. Erkak va ayol ijodkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish san’at rivojini jadallashtiradi hamda jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Ta’lim tizimida san’at orqali gender tenglik g‘oyalarini singdirish zamonaviy ta’lim siyosatining dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Butler J. Gender Trouble. New York: Routledge, 1990.
2. Nochlin L. Why Have There Been No Great Women Artists? London: Thames & Hudson, 1988.
3. UNESCO. Gender Equality and Culture. Paris, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi. Gender tenglikni ta’minlash strategiyasi. Toshkent, 2022.